

ARGUMENTATSIYA VA TANQIDIY FIKRLASH: NAZARIY ASOSLAR VA OLIY TA'LIMDA QO'LLANILISHI

Otabek Xusanboyevich Tilavoldiyev

katta o'qituvchi, Guliston davlat universiteti

Email: otabektkh@gmail.com

Tel: +998 97 277 83 26

<https://orcid.org/0009-0001-7307-0064>

Annotatsiya. Mazkur maqola argumentatsiya va tanqidiy fikrlash tushunchalarining nazariy asoslari, ularning tarixiy rivojlanishi hamda zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi o'рни va ahamiyatini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda argumentatsiya va tanqidiy fikrlash inson tafakkurining muhim kognitiv jarayonlari sifatida ko'rib chiqilib, ularning ilmiy tafakkur, muloqot va akademik faoliyatdagi roli ochib beriladi. Maqolada ushbu ikki kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi, umumiy va farqli jihatlari, shuningdek ularning metodologik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar va nazariy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida argumentatsiya nazariyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning falsafiy va mantiqiy ildizlari yoritiladi. Xususan, argumentatsiya nazariyasining klassik yondashuvlari, mantiqiy dalillash usullari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilayotgan argumentativ modellarning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, argumentatsiyaning akademik yozuv, ilmiy maqola yaratish, ilmiy muhokama va tadqiqot natijalarini asoslash jarayonidagi o'рни ham batafsil ko'rib chiqiladi. Tanqidiy fikrlash esa ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Maqolada oliy ta'lim jarayonida argumentativ yondashuv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik va didaktik jihatlari ham muhim masala sifatida ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayonida munozara, muammoli vaziyatlar, tahliliy yozuv va ilmiy bahs-munozaralardan foydalanish talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, argumentatsiya va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini oliy ta'lim dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish talabalarning refleksiv tafakkurini, ilmiy tadqiqotchilik salohiyatini hamda samarali akademik muloqot ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bois mazkur kompetensiyalar zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur.

Kalit so'zlar: argumentatsiya, tanqidiy fikrlash, ritorika, mantiq, pragma-dialektika, akademik yozuv, oliy ta'lim.

АРГУМЕНТАЦИЯ И КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРИМЕНЕНИЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. Данная статья посвящена всестороннему анализу теоретических основ аргументации и критического мышления, их исторического развития, а также

роли и значения в современной системе высшего образования. В исследовании аргументация и критическое мышление рассматриваются как важные когнитивные процессы человеческого мышления, и раскрывается их значение в научном мышлении, коммуникации и академической деятельности. На основе научной литературы и теоретических источников анализируются взаимосвязь данных двух компетенций, их общие и отличительные особенности, а также их методологические характеристики.

В ходе исследования рассматриваются этапы формирования и развития теории аргументации, её философские и логические основы. В частности, анализируются классические подходы к теории аргументации, методы логического обоснования, а также основные особенности аргументативных моделей, применяемых в современных научных исследованиях. Кроме того, подробно освещается роль аргументации в академическом письме, подготовке научных статей, научных дискуссиях и обосновании результатов исследований. Критическое мышление, в свою очередь, интерпретируется как процесс анализа, оценки, сопоставления информации и формирования самостоятельных выводов.

В статье также рассматриваются педагогические и дидактические аспекты формирования аргументативного подхода и навыков критического мышления в системе высшего образования. Подчеркивается, что использование дискуссий, проблемных ситуаций, аналитического письма и научных дебатов в образовательном процессе способствует развитию аналитического мышления студентов. Результаты исследования показывают, что системная интеграция компетенций аргументации и критического мышления в образовательные программы высшего образования существенно способствует развитию рефлексивного мышления студентов, их исследовательского потенциала и навыков эффективной академической коммуникации. В связи с этим данные компетенции следует рассматривать как важный компонент современной образовательной системы.

Ключевые слова: аргументация, критическое мышление, риторика, логика, прагма-диалектика, академическое письмо, высшее образование.

ARGUMENTATION AND CRITICAL THINKING: THEORETICAL FOUNDATIONS AND APPLICATION IN HIGHER EDUCATION

Abstract. This article is devoted to a comprehensive analysis of the theoretical foundations of argumentation and critical thinking, their historical development, as well as their role and significance in the modern higher education system. The study considers argumentation and critical thinking as important cognitive processes of human thinking and reveals their role in scientific reasoning, communication, and academic activity. Based on scholarly literature and theoretical sources, the interrelation between these two competencies, their similarities and differences, as well as their methodological characteristics are analyzed.

The research also examines the stages of the formation and development of argumentation theory and its philosophical and logical foundations. In particular, classical approaches to argumentation theory, methods of logical reasoning, and the main characteristics of argumentative models used in modern scientific research are analyzed.

Furthermore, the role of argumentation in academic writing, the preparation of scientific articles, scholarly discussions, and the justification of research results is thoroughly examined. Critical thinking, in turn, is interpreted as the process of analyzing, evaluating, comparing information, and forming independent conclusions.

The article also discusses the pedagogical and didactic aspects of developing argumentative approaches and critical thinking skills within higher education. It is emphasized that the use of discussions, problem-based situations, analytical writing, and academic debates in the educational process contributes significantly to the development of students' analytical thinking. The results of the study indicate that the systematic integration of argumentation and critical thinking competencies into higher education curricula significantly enhances students' reflective thinking, research potential, and effective academic communication skills. Therefore, these competencies should be regarded as essential components of the modern educational system.

Keywords: argumentation, critical thinking, rhetoric, logic, pragma-dialectics, academic writing, higher education.

KIRISH

Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, tanqidiy fikrlash va argumentatsiya bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda kelishini ko'rishimiz mumkin. Shunga qaramay argumentatsiya va tanqidiy fikrlashning asoslari va kelib chiqishi turli sohalarga borib taqaladi. Xususan, tanqidiy fikrlash asoslari falsafaga borib taqalsa, argumentatsiyaning asoslari ko'proq ritorikaga borib taqaladi. Falsafa va ritorikaning o'zaro bir-biri bilan bog'liqligiga oid ilk munozalar bo'lsa Arastu va Aflotunning ishlarida o'z aksini topgan. Ularning munozaralari asosan g'oyalar, ideallar, tushuncha va mavhum bo'lgan tushunchalar yuzasidan mulohaza yuritish va ushbu kategoriyalarni og'zaki va boshqa shakllarda ifodalash masalalariga qaratiladi. Argumentatsiya va tanqidiy fikrlash hozirgi kunga kelib oliy ta'lim o'quv dasturlarida markaziy o'rinni egallovchi kompetensiyalardan biriga aylangan va oliy ta'limda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga oid o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Argumentatsiya insoniy muloqot va qaror qabul qilishning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, falsafa, huquq, siyosat va kundalik o'zaro munosabatlar kabi turli sohalarda muhim ahamiyatga ega ko'nikma sanaladi. Argumentatsiya nazariyasi sohasi argumentlarni yaratish va baholashning konseptual asoslarini va amaliy qo'llanilishini tushunishga qaratilgan keng, ko'p tarmoqli soha hisoblanadi.

Jumladan, falsafa, tilshunoslik, kommunikatsiya, huquq va axborot texnologiyalari kabi turli sohalarda faoliyat yurituvchi olimlar tomonidan mazkur yo'nalishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq qilingan. F.Van Emerenga ko'ra, argumentatsiya nazariyasining asosiy yo'nalishlari qatoriga mantiqiy tuzilmalarni, fikrlash usullarini va asosli murojaat, e'tirof va boshqa muloqot birliklarini shakllantirish hamda ularning asoslanganligi va dalillarga tayanganligini baholashda zarur hisoblangan diskursiv xatti-harakatlarni majmuini yoritishni o'z ichiga oladi [Van Eemeren F. H. 2009:109–124].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy argumentatsiya nazariyasining asoslari Arastuning «Ritorika» nomli fundamental asarida keltirilgan klassik ritorikaga oid qarashlariga borib taqaladi. Arastu o'z qarashlarida “ethos” (ishonchlilik), “pathos” (hissiyotlar) va “logos” (mantiqiy fikrlash) orqali tinglovchi yoki o'quvchini biron bir fikr, g'oya yoki qarashga ishontirish, ergashtirish usullarini tizimli o'rganishni taklif etadi [Braet A. C. 1992: 307–320; Savova M. R. 2019].

Ritorik dalillar deb ataladigan ushbu bayonotlar va huquqiy sharoitlarga mos keluvchi hamda mantiqiy bo'lmagan vositalar orqali auditoriya, tinglovchi yoki o'quvchini ilgari surilayotgan da'voning asosli ekanligiga ishontirishga qaratiladi. Arastu mantiqiy mulohazalarning asosi sifatida sillogizm va entimemalarni kiritib, ular orqali to'g'ridan-to'g'ri va mulohazali dalillar keltirishning asoslarini ishlab chiqdi. Shuningdek, Arastu tomonidan taklif etilgan notiqlikning ritorik uslublari va metodlarini tasniflashga qaratilgan yondashuvi ritorika va argumentatsiyani tizimli tahlil qilinadigan soha sifatida belgilab berdi [Cope E. M. 2010].

Bizning fikrimizcha, argumentatsiya nazariyasi ta'lim sohasida, ayniqsa, talabalarning tanqidiy fikrlash va mulohaza qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim dasturlari mazmuniga argumentatsiya asoslari va tamoyillarini kiritish orqali talabalarda murakkab masalalarni turli nuqtayi nazarlardan yondashgan holda tizimli tahlil qilish, xulosalarni qo'llab-quvvatlash uchun asoslarga hamda dalillarga tayangan isbotlarni yaratish hamda turli qarashlarga ega bo'lgan tengdoshlari bilan o'zaro hurmatga asoslangan bahs-munozaraga kirishi ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin. Turli fanlar

bo'yicha ta'lim dasturlari talabalarning o'z-o'zini boshqaradigan izlanish, fikr yuritish, yozma va og'zaki muloqot qilish qobiliyatini oshirishga qaratilgan argumentatsiyaga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va pedagogik amaliyotlarni tobora ko'proq o'z ichiga olmoqda [Kuhn D. 1991].

Tanqidiy fikrlashning Tulmin kabi modellarini qo'llash orqali talabalar sabablar va oqibatlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni tushunish, shu bilan birga argumentlarni baholash va kontrargumentlarni tan olishning muhimligini anglab yetadilar [Karch J. 1987: 81–92].

Ushbu yuqori darajadagi fikrlash amaliyotlari shaxsning akademik va kasbiy faoliyati davomida uzluksiz o'rganish, muammolarni hal qilish va innovatsiyaga intilishida muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Argumentatsiyaning nazariy asoslarini yaratgan ilmiy qarashlar va yondashuvlar qatoriga Tulminning argument elementlari sxemasi, Van Eemeren va Grootendorstning pragma-dialektik yondashuvi va Frimanning taxminlar nazariyasi kabilarni kiritish mumkin [Toulmin S. E. 2003; Ma J.2018; Freeman R. E., Phillips R. A. 2002: 331–349].

So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar mazkur asosiy yondashuv va modellar ustiga qurilgan bo'lib, ularning qo'llanilish jabhalari va kontekstlarini yanada kengaytirmoqda.

Xususan, D.Uoltonning turli xil argumentatsiya sxemalari haqidagi qarashlari bahs-munozaralar, ilmiy izlanishlar va huquqiy bahslar kabi turli sohalarda dalillar klassifikatsiyasi va standartlari haqidagi tushunchalarni takomillashtirgan [Walton D. 2008]. Hozirgi paytda argumentatsiya nazariyasini qiziqtiruvchi asosiy masalalardan biri bu sun'iy ong hamda matematik hisob-kitoblar yordamida mantiqiy izchillika ega argumentlarni avtomatik ravishda yaratish, tahlil qilish va tanqidiy o'rganishni amalga oshira oluvchi dasturiy ta'minotlarni yaratish sanaladi.

Argumentatsiya va tanqidiy fikrlash samarali muloqot va asosli qaror qabul qilishning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. T.Goviyer va b. fikricha argumentatsiya muloqot davomida argumentlarni tuzish va baholash jarayonlarini o'z ichiga olib, bunda argument taklif etilayotgan xulosani qo'llab-quvvatlovchi

sabab sifatida beriluvchi bir yoki bir nechta tuzilmalar, bayonotlar yoki takliflar majmuidir [Govier T. 2010]. O'z navbatida tanqidiy fikrlash – bu kuzatish, tajriba yoki muloqot natijasida to'plangan ma'lumotlarni faol tahlil, sintez qilish va baholashning tartiblashgan jarayonidir [Elder L., Paul R. 2010: 36–37].

Ushbu ko'nikmalar majmui muammolarni hal qilish va murakkab masalalarni tushunish uchun juda muhim sanaladi, chunki u isbotlarning asosga egaligi va dalillarga tayanganligiga baho berish, mantiqiy xatoliklarni aniqlash, hamda faktni subyektiv fikrdan ajrata bilish imkonini beradi. Argumentatsiya va tanqidiy fikrlashni qo'llagan holda shaxslar og'zaki yoki yozma ravishda ifodalangan nuqtayi nazarlarni chuqurroq anglab yetish, bahs va munozaralarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosli va dalillarga tayangan taraf, yondashuvni egallash imkoniyatini beradi [Govier T. 2010].

Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lish orqali shaxs dalillarni izchil ravishda yaratish, qarama-qarshi dalil va isbotlarni anglay olish va shu orqali konstruktiv muloqotga kirisha olishi mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, hozirgi axborotlashgan davrda tanqidiy fikrlash yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarni fakt va haqiqatdan ajrata olish, hamda yolg'on ma'lumotlarga chalg'imagan holda oqilona va asosli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa argumentatsiya va tanqidiy fikrlash orqali insonlar nafaqat shaxsiy va kasbiy o'zaro muloqotni, balki yanada xabardor va demokratik jamiyat barpo etishga katta hissa qo'shadilar.

Barchaga ma'lumki, oliy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bu talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini yanada yuksaltirish hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash deganda, oldingi bobda takrorlaganimizdek, axborotni tahlil qilish, dalillarga baho berish hamda shu orqali asosli xulosa va qarorlar qabul qilish ko'nikma va qobiliyatlari majmui anglashinadi.

Argumentatsiya nazariyasi bo'lsa ushbu jarayonning ajralmas tarkibiy qismidir. Zero, argumentatsiya nazariyasi argumentlarga baho berish hamda ularni tuzishning tizimlashtirilgan yondauvni taklif etadi [Gerasimova I. A., Novosyolov M. M. 2003: 72–84]. Ennis ta'biri bilan aytganda, tanqidiy fikrlash bu shaxsning "nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligi haqida qarorlar qabul qilishiga qaratilgan oqilona reflektiv mushohada yuritishi" sanaladi [Ennis R. H. 1996: Vol.

18(2)]. Argumentatsiya bo'lsa talabalarni bir nechta nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqish, dalillar sifatiga baho berish va shu orqali izchil fikr va qarorlarni yozma hamda og'zaki ravishda bayon etishga undaydi.

Tahlillar quyidagi ilmiy **natijalarni** ko'rsatdi. Oliy ta'limda talabalardan ko'pincha insholar, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarni o'z ichiga olgan akademik yozuvlar tayyorlash talab etiladi. Yozishning bu shakllari talabalardan aniq, mantiqiy mulohaza yuritishni va argumentlarni strukturali va izchil tarzda taqdim etish qobiliyatini talab qiladi. Argumentatsiya nazariyasi to'g'ridan-to'g'ri ushbu jarayonga bog'liq bo'lib, u fikrlarni tartibga solish va tezisni qo'llab-quvvatlovchi dalillarni yozma ravishda taqdim etish uchun o'ziga xos model taklif etadi.

Masalan, Tulmin modeli akademik yozuvda ayniqsa foydali hisoblangan model sanaladi. Yaxshi tuzilishga ega bo'lgan akademik insho odatda da'vo (tezis) bilan boshlanadi, so'ngra ushbu tezisni tasdiqlovchi dalillar (asoslar) keltiriladi. Sabab va oqibat ko'rinishidagi misollar bo'lsa tezis va dalil o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlab beradi. Bu mazkur kontekstda dalillar tezis bilan qay tarzda bog'liqlikka egaligini izohlaydi. Ushbu strukturaga rioya qilish orqali talabalarga dalillarining aniq, mantiqiy va izchil ravishda tashkillashtirilganligiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Argumentatsiya nazariyasining yana bir ustunligi va amaliy ahamiyati shundaki, ushbu nazariyaning amaliyotda qo'llanilishi orqali talabalarning nafaqat akademik insholarni sifatli yoza olish balki ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini ham rivojlantirish mumkin. Barchaga ma'lumki, ko'p sohalarda tadqiqot nafaqat ma'lumotlarni to'plab va ularni tahlil qilishni, balki sohaga oid mavjud nazariyalar va qarama-qarshi yondashuv va nuqtayi nazarlarga asoslangan holda to'plangan ma'lumotlarni talqin qilishni ham o'z ichiga oladi. Argumentatsiya nazariyasi talabalarni boshqa olimlar tomonidan keltirilgan dalillarni tanqidiy baholashga, ilmiy adabiyotlardagi kamchiliklar yoki zaifliklarni aniqlashga hamda dalillar asosida o'zlarining asosli xulosalarini ishlab chiqishga o'rgatadi [Golubeva N. B. 2015].

Ushbu jarayon ilmiy tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, undan ko'zlangan maqsad ko'p hollarda sohadagi mavjud ilmiy muammoga doir bahs-

munozaraga yangi dalillar va qarashlar orqali hissa qo'shishdir. OTM kontekstida o'tiladigan ko'pchilik fanlar, xususan, gumanitar va ijtimoiy fanlar doirasida talabalar ko'plab murakkab va bahs-munozarali masalalarga duch kelishadi. Bular o'z ichiga falsafadagi axloqiy dilemmalarni muhokama qilish, tarixiy voqealarni tahlil qilish yoki ayrim mamlakatlar yuritgan yoki yuritayotgan iqtisodiy siyosatni baholash kabilarni oladi. Bu bo'lsa o'z navbatida talabalardan turli argumentlarni yaratish va dekonstruksiya qila olishni talab qiladi. Argumentatsiya nazariyasi o'z navbatida buni samarali amalga oshirishning amaliy yo'llarini taklif etadi. Argumentatsiya nazariyasining amalda qo'llanilishi talabalarga kuchli va zaif dalillarni farqlash, argumentlar va ular bilan keluvchi dalillardagi mantiqiy xatoliklarni aniqlash hamda o'z tezislarini ishonchli dalillar asosida qurishga o'rgatadi.

Argumentatsiya nazariyasi yozma muloqot va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatidan tashqari auditoriyadagi og'zaki nutqda ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy ma'ruzaga asoslangan o'qitishda talabalar ko'pincha ma'lumotni passiv qabul qiluvchi rolda ishtirok etadilar. Biroq, ma'ruza jarayonida bahs-munozarali masalalarni ko'rib chiqish, talabalardan o'z qarash va nuqtayi nazarlarini ifodalashni so'rash o'qitishning yanada faol shaklini rag'batlantiradi [Lvova O. V. 2014].

Auditoriyada kechuvchi nutqda argumentatsiya elementlaridan foydalanish talabalarga mavzuni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ya'ni argumentatsiya elementlarini qamrab olgan bahs-munozara shaklida tashkil qilingan mashg'ulotlar davomida talabalar o'rtaga tashlangan mavzu yoki masala bo'yicha o'z qarashlarini himoya qilishni yoki boshqalarning dalillarini tanqid qilishni o'rganadi. Bu o'z navbatida talabalardan o'quv materialini yanada chuqurroq tadqiq qilishga undaydi. Natijada, bunday bahs-munozarali muhitni tashkil qilish faol ta'limga yo'l ochadi. Zero talabalar bu jarayonda faktlarni shunchaki yod olishga emas balki, balki o'z bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga intiladi [Karpov G. V., Lisanyuk E. N. 2020].

Bundan tashqari, argumentatsiya auditoriyada inklyuzivlik tamoyillarini keng targ'ib qilishda xizmat qilishi mumkin. Xususan, bahs munozarada har bir

talabaning o'z fikr va qarashlarini bildirish, har bir qarash va fikrning inobatga olinishi talabalarda ijtimoiy, iqtisodiy va etnik kelib chiqishi turli bo'lgan shaxslarning qarashlarini inobatga olish kerakligini o'rgatadi. Ta'limga bunday demokratik yondashuv turli nuqtayi nazarlarni qadrlashning va hurmat qilishning ahamiyatini oshiribgina qolmay, shaxslar o'rtasida o'zaro hamjihatlik va madaniyatlararo muloqot qadriyatlarini singdiradi [Hewson M. G., Oggunniyi M. B. 2011:679–692]. Talabalar turli nuqtayi nazarlar bilan munosabatda bo'lishni o'rganar ekan, ular empatiya, faol tinglash va o'z fikrlarini aniq va ishonchli ifodalash kabi muhim ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Argumentatsiya nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri bu qarama-qarshi argumentlarga murojaat qilishning ahamiyatidir. Har qanday munozara yoki muzokarada shaxsning yoki tomonning o'z nuqtayi nazarini taqdim etishi bilangina cheklanmaydi, aksincha samarali argumentatsiya e'tirozlarni oldindan bilish va ularga javob berish qobiliyatini talab qiladi. Bu tamoyil ayniqsa oliy ta'lim konteksti uchun juda dolzarb bo'lib, bunday yondashuv talabalarni tanqidiy fikrlashga, murakkab, ko'p qirrali masalalar bilan shug'ullanishga undaydi.

Qarama-qarshi dalillarga murojaat qilish orqali talabalar intellektual qat'iyatlilik hamda o'zgalar tomonidan ilgari surilgan qarama-qarshi fikrlar va g'oyalar bilan ish ko'rishga, ularni inobatga olishga tayyorligini namoyish etadilar. Bu jarayon talabalardan o'z dalillarini mustahkamlash ustida ishlashni talab etadi. Zero bu ularga o'z fikr va mulohozalarida uchrashi mumkin bo'lgan zaifliklar yoki kamchiliklarni inobatga olishga undaydi. Undan tashqari, qarama-qarshi dalillarni ko'rib chiqish, talabalarda o'rganishga yanada ochiq va mulohazakor yondashuvni rivojlantiradi.

Akademik yozuvda qarama-qarshi argumentlarga murojaat qilish muvozanatlashgan va asosli dalillarni ishlab chiqarishning asosiy komponentidir. Akademik insho yoki ilmiy maqolada nafaqat yozuvchining o'z nuqtayi nazari taqdim etilishi talab etiladi, balki masalaga doir muqobil istiqbollarni tan olishni va ularga javob berishni talab etadi. Bu bo'lsa o'z navbatida akademik matnda taqdim etilayotgan argumentlarning ishonchlilik darajasini oshiradi, chunki bu yondashuv

yozuvchining masalaning turli tomonlarini batafsil o'rganib chiqqanligini va shunchaki bir tomonlama fikr bildirilmayotganligini ko'rsatadi [Morgun E. A. 2020].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, argumentatsiya nazariyasining oliy ta'limga integratsiyalashuvi talabalarning refleksiv fikrlashi, yanada mukammal akademik matnlar yaratishi va intellektual muloqotda samarali ishtirok eta olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida xulosa qishishimiz mumkinki, argumentatsiya tanqidiy fikrlashdan farqli o'laroq ancha texnik va jarayonga asoslangan tushuncha bo'lib, ushbu konsepsiyaning asosida dialogizm, diskurs nazariyasi, tilshunoslik, mantiq (xususan noformal mantiq), pragma-dialektika, nutq faoliyati nazariyasi, muloqot nazariyasi hamda mumtoz va zamonaviy ritorikalar yotadi. Eklektik jihatdan kelib chiqishi murakkab bo'lgan argumentatsiya nafaqat kundalik muloqotda, balki mahalliy, milliy va halqaro miqyosdagi siyosatda muhim rol o'ynaydi. Zero, nuqtayi nazarni murakkab argumentlar yordamida ifoda etish va ushbu argumentlarni ishonchli dalil va isbotlar bilan qo'llab-quvvatlagan holda o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, o'zgalarning argument va nuqtayi nazarlaridagi zaifliklarni aniqlagan holda kontrargumentlar keltirish samarali va konstruktiv bahs-munozara yuritishning asosini tashkil qiladi.

Argumentatsiya oliy ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'nikma sanaladi. Zero, qaysi ta'lim yo'nalishini bitirishidan qat'iy nazar eng muvaffaqiyatli va sifatli bitiruvchilargina ham yozma, ham og'zaki ravishda samarali bahs-munozaraga kirisha oladi. Samarali bahs munozaraning asosini bo'lsa yuqori darajada rivojlangan tanqidiy fikrlash va argumentlar tuza olish ko'nikmalari tashkil qiladi. Argumentatsiyaning yana bir farqli jihati shundaki, ushbu ko'nikmani baholash tanqidiy fikrlash ko'nikmasini baholashga qaraganda osonroq. Murakkab argumentlar tuza olish ayniqsa yuqori bosqichdagi oliy ta'limga xos hisoblangan ko'nikmalar sirasiga kiradi. Argumentlar tuza olish va ularni samarali himoya qilish magistratura hamda doktorantura bosqichlarida, xususan, magistrnlarning hamda doktorantlarning dissertatsiyalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Argumentatsiya deganda biz g'oyalarni, o'y-mulohaza, hissiyot va tahminlarni ifodalashni; ushbu g'oya va tushunchalarni mantiqiy tarzda bir-biri bilan bog'lagan holda isbot-dalillar bilan qo'llab-quvvatlash tushunamiz.

Shu tariqa talabalarga argumentatsiyaning asoslarini o'rgatish orqali nafaqat izchil va mantiqiy fikrlash balki tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ham shakllantirish mumkin bo'ladi. Huddi shu tarzda talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish orqali ham argumentativ muloqot ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati tug'iladi. Bu birinchi chet tili, xususan, ingliz tili ta'lim yo'nalishlarida taxsil oluvchi talabalarning til sathlari bo'yicha bilimlarini, ingliz tili yozma nutqining, jumladan argumentativ matnlarga xos leksik, grammatik, stilistik va pragmatik xususiyatlari haqidagi bilimlar majmuini rivojlantirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreichuk, N. V. University Education and Critical Thinking // *Bulletin of the Immanuel Kant Baltic Federal University*. – 2011. – No. 6. – pp. 42–50. <https://journals.kantiana.ru>
2. Braet A. C. Ethos, pathos and logos in Aristotle's Rhetoric: A re-examination // *Argumentation*. – 1992. – Vol. 6. – P. 307–320. <https://link.springer.com/article/10.1007/BF00154696>
3. Cope E. M. et al. (ed.). Aristotle: Rhetoric. – Cambridge University Press, 2010. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511802055>
4. Elder L., Paul R. Critical Thinking: Ethical Reasoning as Essential to Fairminded Critical Thinking // *Journal of Developmental Education*. – 2010. – Vol. 34(1). – P. 36–37. <https://www.jstor.org/stable/42775633>
5. Ennis R. H. Critical thinking dispositions: Their nature and assessability // *Informal Logic*. – 1996. – Vol. 18(2). <https://doi.org/10.22329/il.v18i2.2378>
6. Freeman R. E., Phillips R. A. Stakeholder theory: A libertarian defense // *Business Ethics Quarterly*. – 2002. – Vol. 12(3). – P. 331–349. <https://doi.org/10.2307/3858020>
7. Gerasimova I. A., Novosyolov M. M. Argumentatsiya kak metodologiya ubezhdeniya // *Voprosy filosofii*. – 2003. – № 10. – S. 72–84. <https://elibrary.ru>
8. Golubeva N. B. Razvitie kriticheskogo myshleniya kak vazhnyy element// *Vestnik universiteta*. – 2015. – № 3. – S. 257–261. <https://elibrary.ru>
9. Govier T. et al. A Practical Study of Argument. – Belmont, CA: Wadsworth, 2010. <https://books.google.com/books?id=6tJbDwAAQBAJ>
10. Hewson M. G., Ogunniyi M. B. Argumentation-teaching as a method... // *Cultural Studies of Science Education*. – 2011. – Vol. 6. – P. 679–692. <https://doi.org/10.1007/s11422-010-9287-2>
11. Karbach J. Using Toulmin's model of argumentation // *Journal of Teaching Writing*. – 1987. – Vol. 6(1). – P. 81–92. <https://journals.iupui.edu/index.php/teachingwriting>

12. Karpov G. V., Lisanyuk E. N. Prakticheskaya filosofiya obucheniya argumentatsii – 2020. <https://elibrary.ru>
13. Kuhn D. The Skills of Argument. – Cambridge University Press, 1991. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511571357>
14. Lvova O. V. Ispolzovanie tekhnologii «Debaty» pri obuchenii – 2014. <https://elibrary.ru>
15. Ma J. et al. A Pragma-Dialectical Study of Pragmatic Argumentation – 2018. <https://doi.org/10.1007/978-3-319-74630-6>
16. Morgun E. A. Akademicheskii diskurs: esse kak zhanr akademicheskogo pisma. – 2020. <https://elibrary.ru>
17. Savova M. R. AF Losev o znacheniyakh ponyatiy «Etos», «Logos» i «Pafos» – 2019. <https://cyberleninka.ru>
18. Toulmin S. E. The Uses of Argument. – Cambridge University Press, 2003. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511840002>
19. Van Eemeren F. H. The Study of Argumentation // The SAGE Handbook of Rhetorical Studies. – 2009. – P. 109–124. <https://doi.org/10.4135/9781412982792>
20. Walton D. Argumentation Schemes. – Cambridge University Press, 2008. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511802031>

References

1. Andreichuk, N. V. University Education and Critical Thinking // Bulletin of the Immanuel Kant Baltic Federal University. – 2011. – No. 6. – pp. 42–50.
2. Braet A. C. Ethos, pathos and logos in Aristotle's Rhetoric: A re-examination // Argumentation. – 1992. – Vol. 6. – P. 307–320.
3. Cope E. M. et al. (ed.). Aristotle: Rhetoric. – Cambridge University Press, 2010.
4. Elder L., Paul R. Critical Thinking: Ethical Reasoning as Essential to Fairminded Critical Thinking // Journal of Developmental Education. – 2010. – Vol. 34(1). – P. 36–37.
5. Ennis R. H. Critical thinking dispositions: Their nature and assessability // Informal Logic. – 1996. – Vol. 18(2).
6. Freeman R. E., Phillips R. A. Stakeholder theory: A libertarian defense // Business Ethics Quarterly. – 2002. – Vol. 12(3). – P. 331–349.
7. Gerasimova I. A., Novosyolov M. M. Argumentatsiya kak metodologiya ubezhdeniya // Voprosy filosofii. – 2003. – № 10. – S. 72–84.
8. Golubeva N. B. Razvitie kriticheskogo myshleniya kak vazhnyy element... // Vestnik universiteta. – 2015. – № 3. – S. 257–261.
9. Govier T. et al. A Practical Study of Argument. – Belmont, CA: Wadsworth, 2010.
10. Hewson M. G., Ogunniyi M. B. Argumentation-teaching as a method... // Cultural Studies of Science Education. – 2011. – Vol. 6. – P. 679–692.
11. Karbach J. Using Toulmin's model of argumentation // Journal of Teaching Writing. – 1987. – Vol. 6(1). – P. 81–92.
12. Karpov G. V., Lisanyuk E. N. Prakticheskaya filosofiya obucheniya argumentatsii... – 2020.
13. Kuhn D. The Skills of Argument. – Cambridge University Press, 1991.
14. Lvova O. V. Ispolzovanie tekhnologii «Debaty» pri obuchenii... – 2014.
15. Ma J. et al. A Pragma-Dialectical Study of Pragmatic Argumentation... – 2018.

16. Morgun E. A. Akademicheskiy diskurs: esse kak zhanr akademicheskogo pisma. – 2020.
17. Savova M. R. AF Losev o znacheniyakh ponyatiy «Etos», «Logos» i «Pafos»... – 2019.
18. Toulmin S. E. The Uses of Argument. – Cambridge University Press, 2003.
19. Van Eemeren F. H. The Study of Argumentation // The SAGE Handbook of Rhetorical Studies. – 2009. – P. 109–124.
20. Walton D. Argumentation Schemes. – Cambridge University Press, 2008.